



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI

II-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 2

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 2

23-24-aprel, 2025

"FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI

Tashkiliy qo'mita raisi:

G.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

S.B. Qorayev

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

D.B. Axmadjanov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

O.A. Ortiqov

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

S.X. Gayupova

Ta'llim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

R.A. Ikramov

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

L.K. Axatov

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Jo'rayev H.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Koshanova N.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Tashmetov T.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Karshiyev Sh.S.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Neshitov P.Yu.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Xaytmetov R.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Muhammadiev L.G.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Nafasov A.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Eronov S.Q.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Saidusmanov B.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Usmanov A.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Sunnatov T.R.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tuganova L.Dj.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Toshtemirov R.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ilmurodova f.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Yo'ldoshev U.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Abdullayeva D.N.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Sa'dullayeva M.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Xolmo'minov G.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Miraxmedova Sh.N.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Yakubov X.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Imomova U.I.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tadjibayeva R.O.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Umarova Sh.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Yursinboyev J.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Nurmanov Sh.J.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Abdullayev T.S.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Maxkamov D.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ilyosov Sh.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Burliyev U.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

FARG'ONA FOJIASINING XALQIMIZ TARIXIDAGI AHAMIYATI

Alijonova Mushtariybonu

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lif fakulteti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Ilmurodova Feruza Shakirovna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona fojiasi, uning xalqimiz tarixidagi ahamiyati va bu voqealar qanday oqibatlarga olib kelganligi haqida biroz fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona fojiasi, o'zbeklar va mesxeti turklari, Aliyev, I. A. Karimov, millatchilik, ziddiyatlarning kelib chiqishi

1989-yilning mayida Farg'ona o'zbeklar va mesxeti turklari o'rtasida dahshatli qirg'inga aylangan ommaviy to'qnashuvlar boshlanib ketdi, butun Farg'ona olov ichida qoldi. Ziddiyat to'lqini o'sha kezlar respublika aholisining qariyb yarmi yashayotgan Farg'ona vodiysi butunlay o'z domiga olishi mumkin edi. Farg'ona hodisalari payti 100 dan ziyod kishi qurban bo'ldi, mingga yaqin inson jarohatlandi, deb yozgan edi Karimov Fondi.

Qonli voqealarni sharhlar ekan, SSSR Oliy Soveti Millatlar Kengashi raisi (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining sobiq birinchi kotibi) Rafiq Nishonov Xalq deputatlari syezdi majlisida: Bozorda „bir tovoq qulupnay“ uchun janjal bilan boshlangan (turk xaridor o'zbek sotuvchisiga qo'pollik qilib, qulupnayni urib yuborgan, o'rnidan turib, janjal boshlangan va hokazo) degan edi.

To'qnashuvlar kutilmaganda boshlandi. Uylarga o't qo'yilib, mesxeti turklarini kaltaklash, qotilliklar, bunaqa bo'lishini hattoki qo'rqinchli tushda ham tasavvur qilish qiyin. O'zbek do'stlarim ko'p edi, hech qachon ziddiyatga bormaganmiz. Ko'chalarda oqayotgan qonni ko'rib ham, buning haqiqat ekaniga ishonolmadim, – deydi hodisa guvohi Javid Aliyev.

Aliyevning qarindoshlari va boshqa yuz minglab mesxeti turklari 1944 yilda o'z vatani Gruziyadan Markaziy Osiyoga — O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonga deportasiya qilingan. Sovet hukumati bu millatning Turkiya bilan bog'liqligi bor deb hisoblagan va buni SSSR xavfsizligiga tahdid deb bilgan. Shuningdek, bu ishning orqasida qandaydir kuchlar turgani to'g'risida juda ko'plab variantlar bor. Lekin, uchinchi tomon qirg'inni rejalashtirganini isbotlab beradigan biror-bir dalil yo'q.

Yana bir mashhur versiya: «Birlik» partiyasining O'zbekistondan rus tilida so'zlashuvchi aholini chiqarib yuborishga urinishi. Biroq Moskva ularning himoyasiga chiqishini o'ylab, buni mesxeti turklaridan boshlashga qaror qilishadi.

Guvochlarning so'zlaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, qirg'in uyushtirganlarning katta qismi mahalliy aholi vakillari bo'lmagan.

Qayd etilishicha, ana shunday mushkul pallada Islom Karimov respublika rahbari etib saylandi. Saylanganidan keyin u zudlik bilan Farg'onaga bordi. Karimovning puxta o'ylagan siyosati va faol sa'y-harakatlari hamda jarayonda Markaz vakillari ham bevosita qatnashishi lozimligi haqidagi qat'iy talablari tufayli qonli ixtilos avj olmasdan to'xtatib qolindi. Aks holda, butun respublikada beqarorlik yuzaga kelishi mumkin edi

(Fojeadan so'ng messxeti turklari Rossiyaga ko'chirilgan. Hozirda ular Rossiya, Ozarbayjon, AQSh va Turkiyada yashaydi)

«Islom Karimov O'zbekistonning turli hududlarida alanga olayotgan millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha dadil va mardonavor choratadbirlarni amalga oshirdi. Shu tariqa u 1990 yil fevral-mart oylarida Bo'ka va Parkentda, 1990 yil iyun oyida O'shda qonli etnik ixtilosflarning oldini oldi. Prezident Islom Karimov O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning teng huquqliliginini ta'minlash, ham «titul» millat, ham milliy ozchiliklar manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratdi», deyiladi.

Birinchi prezident tomonidan islam dinining qayta uyg'onishi, qolaversa, mamlakatdagi barcha konfessiyalarning erkin faoliyat yuritishiga g'amxo'rlik ko'rsatilgani bu borada ulkan ahamiyat kasb etdi. Barcha diniy konfessiyalar vakillari o'z e'tiqodiga emin-erkin va to'siqlarsiz amal qilishlari uchun shart-sharoit yaratildi.

Ta'kidlanishicha, milliy va madaniy markazlarning tashkil etilgani O'zbekiston xalqining birligi va yakdillagini ta'minlagan muhim omillardan biri sanaladi. Toshkentda mamlakatdagi milliy-madaniy markazlarning boshini qovushtirgan markaz ta'sis etildi, 1992-yil yanvarda u Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. O'sha yillari O'zbekistonda tatar, nemis, koreys, ozarboyjon, qozoq, yahudiy kabi 54 ta milliy va millatlararo markazlarga asos solindi. Markazlar faoliyati, qolaversa, turli millat va elatlarning o'z tarixi, adabiyoti, tilini o'rganish, an'analar, milliy bayram, urf-odat va marosimlarni tiklash va rivojlantirish singari madaniy, ma'naviy va ijtimoiy talablarini qondirish uchun qulay muhit yaratildi.

«Birinchi prezident tomonidan mamlakatimizdagи barcha millat va elatlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik – uning boshqa xalqlarga ehtiromi va o'z ona eliga yuksak farzandlik muhabbatining ifodasidir. Millatidan qat'i nazar, vatandoshlarimizning Islom Karimovga bo'lgan chuqur hurmati va mehr-muhabbatining boisi va tarixiy qadr-qimmati ham ana shunda», — deyiladi Fondda.

Bugun O'zbekistonda 140 ga yaqin respublika va hududiy miqyosdagi milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. 130 dan ziyod millat va elat vakillari tinch-

totuv va ahillikda yashab kelmoqda. Ularning etnik madaniyati, an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash va har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilgan. 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ta'lif muassasalarida 7 tilda saboq berilmoqda, Milliy teleradiokompaniya o'z dasturlarini 12 tilda efirga uzatmoqda, gazeta-jurnallar esa 10 dan ziyod tilda chop etilmoqda.

REFERENCES

1. Amelin V. V. Mejnatsionalnie konflikti v Sredney Azii na rubeje 1980-90-x godov. – M., 1993.
2. Jiroxov M. A. Semena raspada: voyni i konflikti na territorii bivshego SSSR / Pod red. Ye. Kondukovoy. – SPb.: BXV-Peterburg, 2012. – 688 s. – 2000 ekz. – ISBN 978-5-9775-0817-9.
3. Lure M., Studenikin P. Zapax gari i gorya. Fergana, trevojnyi iyul 1989 g.. – M., 1990.
4. Umarova-Gozalishvili X. Tragediya mesxov. – Tbilisi, 2004.